

## ABU RAYHON BERUNIY QARASHLARINING FALSAFIY TAFAKKUR RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Ibragimov Begzod Taxirjonovich, Guliston davlat universiteti  
tadqiqotchisi

## THE SIGNIFICANCE OF ABU RAYHAN BERUNI'S VIEWS IN THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL THOUGHT

Ibragimov Begzod Takhirdzhonovich, researcher  
Gulistan State University

## ЗНАЧЕНИЕ ВОЗЗРЕНИЙ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ В РАЗВИТИИ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ

Ибрагимов Бегзод Тахирджонович, исследователь  
Гулистанского государственного университета



[bekzod824@gmail.com](mailto:bekzod824@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0006-6112-8106>

tel: +998990024408

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniyning ontologik, gnoseologik qarashlari va ta'limotlarining o'sha davr jamiyatida xalqlarning falsafiy tafakkur taraqqiyotida muhim rol o'ynaganligi xususida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** jahon tamadduni, Abu Rayhon Beruniy, to'g'ri chiziq va egri chiziq, Kat shahri, Afrig'iy Xorazmshoh, "Kitob al-ansob", Yevklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta'limoti, Ioann Bar Ebrey, "Al-Asor al-boqiya an al-qurun al-xoliya", Eduard Zaxau.

**Abstrakt:** This article is devoted to the important role of the ontological and epistemological views and teachings of Abu Rayhan Beruni, the great thinker of the Renaissance in Central Asia, in the philosophical understanding of the rings in the society of that time.

**Keywords:** world civilization, Abu Rayhan Beruni, straight line or curved line, city of Kot, Afrighii Khorezmshah, "Kitab al-Ansab", Yencleid's geometry, Ptolemy's astronomical teaching, John Bar Ebrey, "Al-Asor al-Baqiya an al-Qurun al-Khaliya", Eduard Zahau.

**Аннотация:** Данная статья посвящена важной роли онтологических и гносеологических взглядов и учения Абу Райхана Беруни, великого мыслителя эпохи Возрождения в Центральной Азии, в философском осмыслении колец в обществе того времени.

**Ключевые слова:** мировая цивилизация, Абу Райхан Беруни, прямая линия или кривая линия, город Кат, Африги Хорезмшах, «Китаб аль-Ансаб», геометрия Йенклида, астрономическое учение Птолемея, Джон Бар Эбрей, «Аль-Асор аль-Бакия ан аль -Курун аль-Халия», Эдуард Захау.

**Kirish.** Markaziy Osiyoda ilk uyg'onish davrida Jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shgan juda ko'plab buyuk allomalar, mutafakkirlar o'zlarining asarlari, ilmiy tadqiqotlarida, har tomonlama mukammal jamiyat, odamlarni baxt-saodatga yetkazuvchi adolatli va yetuk davlat tuzilmasi to'g'risida fikr yuritgan. Shu o'rinda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning quyidagi "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning

mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.<sup>1</sup>”-degan fikrlari ilmiy nazariy ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda ilk uygʻonish davri milliy davlatchiligimizning rivojlanishida alohida oʻrin egallaydi. Ayniqsa Abu Rayhon Beruniy, tomonidan yaratilgan falsafiy ontologik, gnoseologik nazariyalar va ijtimoiy falsafiy taʼlimotlarini rivojlantirilganligiga oid fundamental ilmiy asarlar monografiyalar, risola va maqolalar nashr etilgan va bugungi kunda ularni tahlil etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ushbu tadqiqotlarni amalga oshirish va oʻrganish xorijlik olimlar Genrix Sarton, Stiven Brokkelman, Manxit Kumar kabi olimlarning<sup>2</sup> eʼtiborini tortib kelgan.

Olamshumul kashfiyotlari bilan ilm va falsafa rahnamolarining ilmiy merosini yanada asrab-avaylash maqsadida 2022-yil 25-avgust kuni Oʻzbekiston Prezidentining “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash toʻgʻrisida”gi Qarori<sup>3</sup> qabul qilinishi buyuk ajdodimizga chuqur ehtirom sifatida tarixiy qadam boʻldi.

Kuchli tafakkur egasining dunyoqarashi, ilmi nafaqat oʻz elini yuksak darajalarga olib chiqadi, kerak boʻlsa, jahon tarixini ham oʻzgartirib yuboradi. Abu Rayhon Beruniy ana shunday beqiyos bilim sohibi sifatida millatimizning ulugʻ siymolaridan. Musulmon Sharqining mashhur olimi Abdulkarim as-Samʼoniy “Kitob al-ansob” (“Nasablar kitobi”) asarida bunday yozadi: “Beruniy degan nisba Xorazmning tashqari qismiga oiddir. Kimki shahardan tashqarida tugʻilgan boʻlsa, bunday odamni “falonchi Beruniy” deydir. Munajjim Abu Rayhon shunday nisbat bilan mashhurdir”<sup>4</sup>.

Beruniyning yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi, qobiliyati kuchli boʻlgan. U zamonasining mashhur olimi Abu Nasr Mansur ibn Iroq qoʻlida taʼlim oladi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya va matematikaga oid bir qancha asar yozib, shulardan

12 tasini Beruniyga bagʻishlaydi. U Beruniyning Yevklid geometriyasi va Ptolemeyning astronomik taʼlimoti bilan tanishtiradi. Ustoz bilan shogird oʻrtasidagi doʻstlik uzoq vaqtlargacha davom etadi. Beruniy ustozining nomini hamma vaqt zoʻr hurmat bilan tilga oladi. Umuman, Beruniy ilmiy masalalar, tarixiy voqealar va zamondoshlariga nisbatan baho berishda oʻta xolislik va haqqoniylik bilan fikr yuritgan. Shu sabab hayotda koʻp aziyatlar chekkan, ogʻir turmush kechirgan, ammo nechogʻli mashaqqatli boʻlmasin, oliy maqsad sari intilishda davom etgan, ishonch-eʼtiqodidan aslo chekinmagan<sup>5</sup>. Shunday xislatlar egasi hisoblangan alloma har doim ilmiy mulohazalarida adolatli va haqqoniylikka asoslangan fikrlar yuritishga odatlangan.

Xususan, allomaning “Hindiston” asariga munosabat bildirgan N.R.Rozenning quyidagi fikrlarini keltirib oʻtmoqchiman:

“Bu asardan begʻaraz har qanday diniy, irqiy, milliy yoki tabaqaviy xurofot va mutaasibliklardan holi boʻlgan tanqidiy yondoshuv ruhi ufurib turibdi”<sup>6</sup> shunday ekan, yozishmalarda Beruniy oʻrinli eʼtirozlar bildirgan degan xulosalarga kelish mumkin.

Beruniy olam haqidagi fikrlari ochiq va ilmiy faktlarga asoslangan. U tarixiy haqiqatlarni nazardan oʻtkazib, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda, haqiqiy bilim olishga undaydi. Beruniyning fikrlari muhim va asosiy maqsadi adolat, haqiqat, haq, sodiqlik va bilimga eʼtibor berish, haqiqiylikni topishga qaratilgan. Beruniyning fikrlari ilmiy mutaxassislar va olimlar orasida muhim manbalardan biri sifatida bilinadi. Bu jihatlar allomaning yuksak maʼnaviyat va chuqur bilim egasi ekanligidan dalolat beradi<sup>7</sup>. Shu bois, akademik I.Krachkovskiy soʻzi bilan aytganda, “Beruniyning shugʻullangan sohasini sanashdan koʻra, shugʻullanmagan sohasini sanash osonroqdir”.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кўнига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи- 2020 йил 30 сентябр

<sup>2</sup> Manxit Kumar. Kvant, Yeynshteyn, Bor i spor o prirode realnosti.-Moskva:-2015.-str.398-399, Sarton G.S. Intradution to the history of Science. Baltimore. 1927. Vol.1 622-630, Brockelmann C. Geschierte der arabischen Littertur. Berlin. Vol.1-2. 1898-1902.

<sup>3</sup><https://lex.uz/ru/docs/-6172044>

<sup>4</sup> Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома, Т.: 2017. -Б.19.

<sup>5</sup> Ўша китоб Б.22.

<sup>6</sup> Розен В. Записки Восточного отд. Имп. Русского Археологического общества.-М.: -С. 17

<sup>7</sup> Ибрагимов Б. Беруний ва Ибн Сино ёзишмаларида Аристотельнинг онтологик таълимоти талқини. Маъмур академиясининг Жаҳон фани тараққиётида тутган ўрни мавзусидаги халқаро конференция материаллари тўплами. Урганч. 2022 йил, 265-бет

Manbalarga ko'ra, olim 150 dan ortiq asarda jamlangan izlanishlardan iborat ilmiy meros qoldirgan. Bugunga qadar uning qo'lyozma ko'rinishidagi 30 dan ortiq kitobi yetib kelgan, xolos. Xususan, XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Ioann Bar Ebrey (1226–1286) Beruniyga bunday baho beradi: “O'sha o'tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o'tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'tmish ilmlarda shuhrat qozondi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san'atini o'rgandi va ularga yunon falsafasini o'rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko'p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir. O'z davridan to bugunga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmning asoslarini chuqur biladigan boshqa bir olim bo'lmagan”.<sup>8</sup> Zero, hind jamoatchiligining taniqli vakili Hamid Rizo e'tirof etganidek: “O'rta asr va yangi zamon tadqiqotchilaridan birortasi ham hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda Beruniy erishgan yutuqlarni qo'lga kiritgan olmagan.”<sup>9</sup>

XIX asrdan boshlab Yevropa va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari, fransuz, italyan, nemis, ingliz, ispan, rus, fors, hind, urdu, yapon turk tillariga tarjima qilina boshlandi. Amerikalik tarixchi olim G.Sarton<sup>10</sup> Beruniyni o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi va XI asrni “Beruniy asri” deb ta'riflaydi. Atoqli sharqshunos N.Rozen esa uning “ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhiga xosligi”ni qayd etadi<sup>11</sup>.

Abu Rayhon Beruniy ilk asari “Al-Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya”-“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ni Jurjonda muhojirlik vaqtida, ya'ni 1000-yili 27 yoshga kirgan paytida yozib bo'lgan edi. Bu asarni birinchi marta mashhur nemis sharqshunos va beruniyshunos olimi Eduard Zaxau<sup>12</sup> (1845–1930) o'rgandi. U 1876–1878-yillarda

Leypsigda “Osor al-boqiya”ning arabcha nusxasini ilk bor nashr etdi.

Bizning fikrimizcha, Beruniy o'zining chiqur ilmiy asoslarga ega bo'lgan ushbu asarlari bilan nomini jahon ilm-u fani tarixiga abadiy muhrladi. Chunki uning qiymatiga teng keladigan salmoqli asarlar hali yaratilmadi.

Beruniyning davlat va jamiyat haqidagi qarashlari diqqatga sazovor. Olim “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida ma'naviy qarashlarini bunday ifodalaydi: “Yaxshilik xislatlari: taqvodorlik, to'g'rilik, o'zini saqlash, dindorlik, odillik, insoniy kamtarlik, latofat, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, muloyimlik, siyosat va boshqarish ishlarida bilimdonlik, kishi bayon etib tugata olmaydigan (yaxshi) sifatlardan iboratdir”<sup>13</sup>. Demak, inson o'z umri davomida taqvo bilan to'g'ri yashashi, o'zini turli fitnalardan saqlashi, adolatga tayanishi, kamtar-kamsuqum va latofatli bo'lishi, sobitqadamlikdan chekinmasligi, boshqaruv siyosatida esa bilimdon va tadbirli bo'lib, taxminda to'g'ri bo'lishi shart.

Buyuk faylasufning nazariyasiga ko'ra, aynan mana shu xislatlar inson kamoloti darjasini belgilab beradi. Ya'ni jamiyat hayotida sinf va tabaqalar asosida boyluk va nasl-nasabning ulug'ligi emas, balki tegishli vazifa-mashg'ulot va hunar yotmog'i, xalqlar do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi lozimligini uqtiradi. Aytish mumkinki, “Yangi O'zbekiston” tamoyili zamirida ulug' ajdodimiz ilgari surgan insonparvalik g'oyalari mujassam.

Beruniyning ilmiy g'oyalari va konsepsiyalari hozirga kelib ham dolzarbligini yo'qotmagan. Olim ko'targan ko'plab masalalar, ilmiy bashoratlar va farazlar ilm-fan rivojida muhim bo'lib, qator masalalarga yechim topishda qimmatli manba, va ayni paytda insonni qurshab turgan olam va uning sir asrorlarini falsafiy bilish va Sharqdagi Uyg'onish davrini Jahon sivilizatsiyasidagi o'rmini aniqlashda ilmiy-nazariy asoslar mavjuddir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

<sup>8</sup> Абуль-Фарадж.(Иоанн Бар Эбрей) Книга занимательных историй. Пер. с сирийского, послесл. и примеч. А. Белова и Л. Вильскера; Ленингр. отд.-ние, 1961.-С-296. <http://www.theodora.com>

<sup>9</sup> <http://www.taajushshariah.com/familyhistory/hujjatulislam>.  
[https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid\\_Rizo](https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid_Rizo)

<sup>10</sup> Sarton G.S. Intradution to the history of Science. Baltimore. 1927. Vol.1 622-630

<sup>11</sup> Розен В. Записки Восточного отд. Имп. Русского Археологического общества.-М.: -С. 17

<sup>12</sup> Эдуард Sachau «Theodori Mopsuesteni fragmenta Syriaca» (Лпц., 1869);

<sup>13</sup> Беруний, Абу Райхон. Осор ал-бокия (Кадимги халклардан қолган ёдгорликлар). Танланган асарлар. Том.І. / Таржимон А.Расулов. изоҳлар. И.Абдуллаев ва А.Расулов. Т.: Фан. 1968.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи- 2020 йил 30 сентябрь.

2. Manxit Kumar. Kvant, Yeynshteyn, Bor i spor o prirode realnosti.-Moskva:-2015.-str.398-399  
Sarton G.S. Intradution to the history of Science. Baltimore. 1927.Vol.1 Brockelmann C. Geschiete der arabischen Littertur. Berlin. Vol.1-2. 1898-1902.

3. Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома, Т.: 2017. -Б.19.

4. Розен В. Записки Восточного отд. Имп. Русского Археологического общества. -М.: -С. 17.

5. Ибрагимов Б. Беруний ва Ибн Сино ёзишмаларида Аристотельнинг онтологик таълимоти талқини. Маъмун академиясининг Жаҳон фани тараққиётида туган ўрни

мавзусидаги халқаро конференция материаллари тўплами. Урганч. 2022 йил, 265-бет.

6. Абуль-Фарадж.(Иоанн Бар Эбрей) Книга занимательных историй. Пер. с сирийского, послесл. и примеч. А. Белова и [Л. Вильскера](#); Ленингр. отд-ние, 1961. -296 с.

7. Sarton G.S. Intradution to the history of Science. Baltimore. 1927. Vol.1 622-630.

8. Sachau E. «Theodori Mopsuesteni fragmenta Syriaca» (Лпц., 1869);

9. Беруний, Абу Райҳон. Осор ал-боқия (Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар). Танланган асарлар. Том.І. / Таржимон А.Расулов. Изоҳлар. И.Абдуллаев ва А.Расулов. Т.: Фан. 1968.

10. <http://www.taajushshariah.com/familyhistory/hujjatulislam>.

11. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid\\_Rizo](https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamid_Rizo)

12. <https://lex.uz/ru/docs/-6172044>

